
Fuqaro murojaati qanoatlantirildi



Fuqaro murojaati qanoatlantirildi

Joriy yilning 17 iyun kuni fuqaro A.U byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi So'x tuman bo'limining 2020 yil 15 iyundagi qarorida Qirg'iziston Respublikasining "Xaydarkon SMOB" kombinatida 01.04.1992 yildan 27.08.1997 yilgacha ishlagan davrlari pensiya tayinlashda hisobga olinmaganidan norozi bo'lib, So'x tuman adliya bo'limiga murojaat qildi.

Shunga ko'ra, So'x tuman adliya bo'limi tomonidan 2020 yil 18 iyun kuni fuqaro A.U ning manfaatini ko'zlab, So'x tuman ma'muriy sudiga da'vo ariza kiritildi va sudning 2020 yil 18 iyun kungi hal qiluv qaroriga asosan byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasining 2020 yil 15 iyun kungi qarori haqiqiy emas deb topilib, tuman pensiya jamg'armasi zimmasiga fuqaro A.U ning 01.04.1992 yildan 27.08.1997 yilgacha Qirg'iziston Respublikasining "Xaydarkon SMOB" kombinatida ishlagan davrlarini pensiya hisoblashda ish stajiga olish majburiyati yuklatildi.

M.Qodiraliyev - So'x tuman adliya bo'limi boshlig'i

2020-07-22 19:43:12